



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

**MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT MEDICAL ACADEMY**

100109, Toshkent sh., Farobiy ko‘chasi -2-uy. Tel.: (+998-78) 150-78-25, (+998-71) 214-83-11 Fax: (+998-78) 150-78-28
Website: www.tma.uz, e-mail: info@tma.uz

2023 yil “6” oktabr

01-08706 - son

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy kengashi yig‘ilishining
2-sonli BAYONI**

Toshkent shahar

«27» sentabr 2023 yil

Raislik qiluvchi: v.v.b Sh.A.Boymurodov

Toshkent tibbiyot akademiyasi
rektori v.v.b, professor

Qatnashdilar:

Toshkent tibbiyot
akademiyasining Ilmiy kengashi
a‘zolari
(ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI

1. Akademiyada o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etilishi bo‘yicha hisoboti.

Ma‘ruzachi – O‘quv–uslubiy boshqarma boshlig‘i Azizova Feruza Xusanovna.

2. Bitiruvchilarni ish taqsimoti natijalari, ularni monitoringi.

Ma‘ruzachi – Marketing va talabalar amaliyoti bo‘limi boshlig‘i Otajonov Ilxom Otabayevich.

3. Professor-o‘qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash.

Ma‘ruzachi – Tanlov komissiyasi.

4. Dissertatsiya, monografiya va o‘quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash.

Ma‘ruzachi – O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i **Azizova Feruza Xusanovna**, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i **Muminova Ziyoda Abrarovna**.

5. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo'yildi va bir ovozdan ma'qullandi.

QAROR QILADI:

1. Kun tartibi bo'yicha birinchi masala "Akademiyada o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etilishi bo'yicha hisobot" mavzusi bo'yicha O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Azizova Feruza Xusanovnaning ma'lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

1.1. Ta'lim platformalariga joylashtirilgan o'quv resurslari qayta ko'rib chiqilsin va kredit-modul tizimida o'qitish talablariga mos ravishda mazmunan yangilansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi (RTTM) boshlig'i A.K.Musaxonov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2023-yil sentabr-oktabr.

1.2. Talabalarning o'z ustida mustaqil ishlashini ta'minlash uchun fanning metodik ta'minoti (o'quv-uslubiy majmua, mustaqil ta'lim bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, amaliy ko'nikmalarni egallash bo'yicha uslubiy qo'llanmalar) yanada takomillashtirilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, ARM direktori G.V.Kuzmina, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023 yil sentabr-oktabr.

1.3. Kredit-modul tizimida o'qitilayotgan fanlar bo'yicha yakuniy nazorat topshiriqlari (nazorat savollari, testlar, OSKE topshiriqlari)ning 50 foizini mustaqil ta'lim mavzulari tashkil etilishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023-yil sentabr-oktabr.

1.4. Kredit-modul tizimi, uning mazmun-mohiyati, o'qish jarayonining borishi, baholash tizimi haqida talabalar uchun muntazam seminarlar tashkil etilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, fakultet dekanlari.

Muddat: har semestrda.

1.5. Fanlarni zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganlik holatini doimiy monitoringi yuritilsin, o'quv adabiyotlarini yaratish rejasining belgilangan muddatlarda bajarilishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, ARM direktori G.V.Kuzmina, o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: reja asosida.

1.6. Yosh pedagoglarni yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari va markazlarda malaka oshirish va stajirovka o'tishlari ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor J.J.Israilov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.

2. Kun tartibidagi ikkinchi masalasi "Bitiruvchilarni ish taqsimoti natijalari, ularni monitoringi" mavzusi bo'yicha Marketing va talabalar amaliyoti bo'limi boshlig'i Otajonov Ilxom Otabayevichning ma'lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

3. Kun tartibidagi uchinchi masala "Professor-o'qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash" bo'yicha Akademiya kengashi kotibi G.A.Ismailova ariza tushganligi haqida ma'lumot berdi. Jumladan, professor ilmiy unvoniga talabgor - Dermatovenerologiya va kosmetologiya kafedrasi mudiri, tibbiyot fanlari doktori Tashkenbaeva Umida Alisherovna, dotsent ilmiy unvoniga talabgorlar- 2-son Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasi dotsenti, tibbiyot fanlari doktori Eshmurzaeva Aida Abdiganievna, Klinik farmakologiya kafedrasi dotsenti, tibbiyot fanlari nomzodi Pulatova Durдона Baxadirovna va Klinik farmakologiya kafedrasi dotsenti, tibbiyot fanlari doktori Pulatova Nargiza Ixсанovna larning hujjatlari bilan tanishtirdi, so'ng saylov o'tkazildi (1-ilova).

4. Kun tartibining to'rtinchi masalasi "Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash" bo'yicha O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova va Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A. Muminova tasdiqlash uchun taqdim etilgan ilmiy va o'quv mahsulotlar bilan tanishtirdilar. (2 va 3-ilovalarda keltirilgan) va tasdiqlash uchun ovozga qo'yildi.

5. Turli masalalar bo'yicha - O'quv ishlari prorektori Sh.A. Boymuradov, Yoshlar masalalari va ma'naviy – ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar prorektori F.L. Azizova, iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikova, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X. Azizova, malaka oshirish fakulteti dekani N.M.Nurillaeva so'zga chiqdilar.

5.1. 2023/2024 o'quv yili bo'yicha Akademiya Ilmiy kengashi tarkibi tasdiqlansin (4-ilova).

5.2. Barcha magistratura yo'nalishlari bo'yicha magistr talabalarni ilmiy-amaliy ish (stajirovka) rejasi tasdiqlansin.

5.3. 2023/2024 o'quv yili uchun barcha ta'lim yo'nalishlarining o'quv amaliyoti, ishlab chiqarish amaliyoti rejaları va ayrim yo'nalishlarning pedagogik amaliyoti kredit-modul o'qitish tizimi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy

talim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 9-iyundagi 259-sonli buyrug‘i asosida tayyorlangan 1-kurs amaliyot dasturlari tasdiqlansin.

5.4. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 – yil 6 mart “Professional ta’lim muassasalarini metodik va ilmiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash” to‘g‘risidagi 44-sonli buyrug‘ini ijrosini ta’minlash maqsadida Akademiyaga biriktirilgan professional ta’lim muassasalari bo‘yicha mas’ul professor-o‘qituvchilarning yillik o‘quv yuklamasi lavozimiga mos ravishda 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab 15 foizga qisqartirilsin.

5.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari uchun quyidagi nomzodlar tavsiya etilsin-

1). Bakalavriat bosqichi talabalari bo‘yicha **Islom Karimov va Ibn Sino nomli davlat stipendiyalariga:**

- 2-son davolash fakulteti, 5-kurs talabasi **Jumanazarova Moxinur;**

- Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va OMH fakulteti, 3-kurs talabasi **Xodjayeva Kumushxon;**

- 1-son davolash fakulteti 5-kurs talabasi **Valiulin Rashid;**

- 2-son davolash fakulteti 5-kurs talabasi **Bolunts Evgeniya.**

2). Magistratura talabalari bo‘yicha **Prezident davlat stipendiyasiga:**

- Magistratura 3-kurs talabasi **Ismoilov Ulug'bek.**

3). Tayanch doktorantlar bo‘yicha **Prezident davlat stipendiyasiga:**

- 2-kurs tayanch doktoranti **Abduraxmonova Qutlibeka.**

5.6. Janubiy Koreya Pusan Milliy universitetining quyidagi professorlariga Akademiyaning “**Fahriy professori**” unvoni berilsin:

1). Pusan National university Yangsan Hospital President & CEO Li Sang Don, MD (Surgery);

2). Pusan National university School of medicine, Rector Chulhun Chang, MD (Biochemistry);

3). Pusan National university school of medicine Director of Research Center medical science Changwan Hong, MD (Laboratory);

4).Pusan National university Yangsan Hospital Head of International Department Cho James Jae Wook (Biology).

5.7. 1-son Travmatologiya, ortopediya va HDJ kafedrasi professori S.U. Asilova rahbarligida “Chanoq-son, tizza bo‘g‘imlarining shikastlanishi va kasalliklarni erta tashxislash, ortobiologik davo usullarini optimallashtirish hamda jarroxlik usulini bajarishda yadro-fizik, analitik usullarni qo‘llash yordamida o‘qitish jarayoniga elektron dasturini yaratish” nomli grant loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tanlovda ishtirok etish uchun tavsiya etilsin.

5.8. Dermatovenerologiya va kosmetologiya yo‘nalishi 2-kurs magistr talabasi Parpiev Bekzod Rustamjon o‘g‘li Akademik harakatchanlik doirasida Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy amaliy markaz xodimlari bilan (t.f.d.Sh.Z.Mavlyanova) hamkorlikda bajariladigan “Sklerodermiya kasalligida kollagenlar rezorbsiyalanish metabolizmining jihatlarini o‘rganish” nomli amaliy loyihasida ishtirok etish uchun tavsiya etilsin.

Rektor v.v.b.



Sh.Boymuradov

Ijrochi: G.Ismailova
ID: 517339
Sana: 06.10.2023